YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA TA’LIM ISLOHOTLARI: XALQARO BAHOLASH TIZIMLARI VA ISTIQBOLLI REJALAR TAHLILI

Ziyoyev Shaxriyor Abdizoir o‘g‘li
Termiz davlat pedagogika institute magistranti
ziyoyevshahriyor931@gmail.com

Annotatsiya. _____ tezisda O‘zbekiston ta’lim tizimining 2017-yildan bugungi kungacha bo‘lgan transformatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Harakatlar strategiyasi” dan “Taraqqiyot strategiyasi” ga o‘tish davridagi ta’limiy yutuqlar, huquqiy islohotlar va sohadagi muammolar kompleks ko‘rib chiqilgan. Ishning asosiy e’tibori PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarining milliy ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi hamda o‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatiga qaratilgan. Shuningdek, inson qadrini ulug‘lash tamoyili asosida ta’lim sifatini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, ta’lim islohotlari, PISA, PIRLS, TIMSS, inson qadri, sifatli ta’lim, pedagogik mahorat, xalqaro standartlar. Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga ***aylandi. Bu jarayonning huquqiy va strategik asosi sifatida 2026-2026 yillarga*** mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi” xizmat qildi. Ushbu davr mobaynida davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda, xususan, ta’lim tizimida keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirildi. Harakatlar strategiyasi doirasida 300 dan ortiq qonun va Prezidentning 4 mingdan ortiq farmon hamda qarorlari qabul qilingani Yangi O‘zbekiston poydevorining huquqiy asoslarini yaratdi. Ayniqsa, ***2026-yil 23-sentyabrdan kuchga kirgan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida” gi*** qonun sohadagi islohotlarni yangi bosqichga ko‘tardi.

Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi sifatida e’lon qilingan “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” endilikda inson qadrini ulug‘lash va xalqparvar davlat barpo etish tamoyillariga tayanmoqda. Strategiyaning 44-maqsadi bevosita ta’lim va fan sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim qamrovini oshirish va oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarini ko‘paytirish kabi muhim vazifalar belgilangan.

Ta’kidlash joizki, ta’lim tizimidagi islohotlar faqat miqdor ko‘rsatkichlari bilan cheklanib qolmay, sifat darajasini xalqaro standartlarga moslashtirishni ham nazarda tutadi. Buning uchun oliy ta’lim muassasalarida diplomlarni nostrifikatsiya qilish jarayonlarini shaffoflashtirish va o‘rta ta’limda bitiruvchilarga kasbiy ko‘nikmalarni (haydovchilik, hamshiralik kabi) maktab davridanoq o‘rgatish kabi yangi tashabbuslar ilgari surilmoqda.

Bugungi kunda ta’lim sifatini baholashda jahon miqyosida tan olingan PISA, PIRLS, TIMSS va TALIS kabi xalqaro dasturlarning o‘rni beqiyosdir. O‘zbekiston ushbu tadqiqotlarda ishtirok etishni boshlagani ta’lim mazmunini tubdan o‘zgartirishga undadi. Masalan, 15 yoshli o‘quvchilarning savodxonlik darajasini baholovchi PISA dasturi yoki 4-sinf o‘quvchilarining matnni tushunish darajasini aniqlovchi PIRLS tadqiqotlari shunchaki test sinovi emas, balki o‘quvchilarning egallagan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini tekshiruvchi mexanizmdir. Bu tizim o‘qituvchilardan dars berish metodikasini yangilashni, ya’ni shunchaki ma’lumot berishdan ko‘ra, tahliliy va tanqidiy fikrlashni shakllantirishga o‘tishni talab qiladi. TIMSS dasturi esa matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quv jarayoni va o‘quv muassasasi imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish orqali milliy ta’lim tizimidagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi.

Xalqaro baholash tizimlarining amaliyotga joriy etilishi ona tili, matematika va tabiiy fanlar darsliklarining mazmunini ham yangilamoqda. Masalan, ona tili

darslarida “Aljabr” matni asosida mantiqiy topshiriqlar berilishi o‘quvchini matn ustida ishlashga, undagi mantiqiy bog’lanishlarni topishga o‘rgatadi.

Riyoziyot olimi al-Xorazmiyning inson xulqi haqidagi ajoyib tenglamasini (yaxshi xulq = 1, husn = 0, boylik = 0) tahlil qilish orqali o‘quvchiga ham matematik, ham ma’naviy tushunchalar o‘zaro bog’liqlikda yetkaziladi. Bunday yondashuv o‘quvchining hayotiy va intellektual ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

Binobarin, ta’limdagi islohotlar nafaqat maktab binosini yangilash, balki darsliklar mazmunini hayotga yaqinlashtirish va xalqaro talablarga moslashtirish orqali amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi loyihasidagi barcha islohotlar, jumladan ta’lim tizimidagi yangilanishlar “Inson qadri uchun” tamoyili negizida birlashadi. Xalqaro baholash dasturlarining muvaffaqiyatli tatbiq etilishi mamlakatimiz yoshlarining raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Islohotlar yo‘lida uchrayotgan muammolarni, xususan, nostrifikatsiya jarayonidagi murakkabliklar yoki ekologik loyihalardagi (“Yashil makon”) parvarish tizimini takomillashtirish orqali biz sifatli ta’lim va barqaror kelajakka erishamiz. Zero, ta’lim tizimining yuksak darajaga ko‘tarilishi mamlakatning iqtisodiy va siyosiy mustahkamligining asosiy kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. - 416 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni (yangi tahriri), 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.

5. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi ma’lumotlari va tahlillari.
6. Ahmedov S. va boshqalar. Adabiyot: 5-sinf darsligi. – Toshkent: Sharq, 2020.
7. Lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.